

Sinf: 1-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

✦ O'quvchilar voqealar yoki ishlarning vaqt bo'yicha ketma-ketligini aniqlash, tartiblab aytish va ifodalashni o'rganadilar. Ular ertalab-kunduzi-kechqurun, dastlab-so'ng-oxirida kabi tushunchalarni hayotiy misollar asosida tushunib, amalda qo'llaydilar.

Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 30 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 1-sinf Matematika darsligidagi **Vaqt bo'yicha ketma-ketlik** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

⌚ Har bir ish yoki voqea ma'lum vaqt ketma-ketligida sodir bo'ladi.

✏ Masalan, tish yuvish-nonushta-maktabga borish kabi ishlar muayyan tartibda bajariladi.

⌚ Vaqt ketma-ketligini tushunish-rejali va tartibli harakat qilishga yordam beradi.

🔧 **Amaliy mashg'ulot: "To'g'ri tartibda joylashtir"**

🎯 **Mashg'ulot maqsadi:**

O'quvchilar kun davomida sodir bo'ladigan voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda tartiblaydi va vaqtga bog'laydi.

📅 **Mashg'ulot bosqichlari:**

1. Rasmlar orqali voqealarni sanab chiqish.

- O'qituvchi quyidagi rasmlarni ko'rsatadi: 1. Uyqudan turish,
- 2. Nonushta qilish, 3. Maktabga borish, 4. Dars qilish, 5. Tushlik, 6. Uyqu.
- Har bir rasmda so'z bilan nima sodir bo'layotgani aytiladi.

2. Rasmlarni ketma-ketlikda joylashtirish (kartochkali yoki ekran orqali)

- O'quvchilar rasmni vaqt bo'yicha to'g'ri tartibda joylashtiradilar.
- "Dastlab nima?", "So'ng nima?", "Oxirida nima?" savollariga javob berishadi.

3. Shaxsiy ketma-ketlik tuzish (ixtiyoriy)

- O'quvchi o'z kun tartibini chizadi yoki og'zaki aytib beradi: "Avval tishimni yuvaman, so'ngra..."

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

- Tartiblash, ketma-ketlik tushunchasi, vaqt tushunchasi.
- “Dastlab, so‘ng, oxirida” kabi matematik mantiqiy ifodalar.

Tabiiy fanlar

- Kun tartibi, biologik ritm, tananing dam olishi va uyg‘onishi.
- Ertalabki va kechki faoliyatlarning tabiiy ketma-ketligi.

Texnologiya

- Vaqtga bog‘langan qurilmalardan foydalanish (soat, signal, grafiklar).
- Dasturlarda (masalan, jadval tuzishda) ketma-ketlikning o‘rni.

Qiziqarli fakt

 Dunyodagi eng aniq soat atom soatidir-u 100 million yilda atigi 1 soniyaga xato qiladi! Bu vaqtni o‘lchashda eng ishonchli vositalardan biridir.